

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINI ZAMON TALABLARIGA MOS RAVISHDA TAYYORLASHNING O‘ZIGA XOSLIGI

Ahmedov Islom Baxtiyor o‘g‘li

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti maxsus-kasbiy fanlar kafedrasida boshlig‘i
o‘rinbosari, dotsent*

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar doirasida ichki ishlar organlari oldiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar va ularning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilingan. Jumladan, jamiyatda demokratik huquqiy davlat qurish jarayonida ichki ishlar organlariga qo‘yilayotgan talablar, jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasidagi hamkorlik ahamiyati, xodimlarning kasbiy tayyorgarligi, shaxsiy va ishchanlik sifatleri haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, xodimlarning dunyoqarashining shakllanishi, huquqiy bilim va amaliy ko‘nikmalarni zamon talablari darajasida takomillashtirish muhimligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: Ichki ishlar organlari, tub islohotlar, jinoyatchilikka qarshi kurash, kasbiy tayyorgarlik, huquqiy bilim, dunyoqarash, xodimlarning shaxsiy sifatleri, jamoat tartibi, qonunchilik, demokratik huquqiy davlat.

Kirish.

O‘zbekiston Respublikasida o‘tkazilayotgan tub islohotlar mamlakatimizning ijtimoiy hayoti, iqtisodiyot, huquq, ma’naviyat sohalaridagi o‘zgarishlarga hamda ichki ishlar organlari faoliyat ko‘rsatish makonini, ular oldidagi vazifalarni, maqsadini tubdan o‘zgarishiga va hajmini oshishiga olib keldi.

Ichki ishlar organlari tizimida tub islohotlarning o‘tkazish zarurati davlatimizning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlar, kriminogen sharoitning keskinlashganligi hamda jamiyatning demokratik huquqiy davlat qurish sharoitida soha faoliyatiga qo‘yayotgan talablarining ortib borayotganligi bilan bog‘liq bo‘ldi.

Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olish faoliyati bilan respublikamizning barcha huquqni muhofaza qiluvchi idoralari: Sud, Prokuratura, Ichki ishlar organlari, Soliq va Milliy xavfsizlik xizmati hamda boshqa xizmatlar shug‘ullanadi. Sanab o‘tilgan organlar qonun bilan berilgan vakolatlari doirasida fuqarolarning huquqlarini har xil turdagi tajovuzlardan himoya qilish, davlatning vakolatli organi tomonidan chiqarilgan jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi normalarni buzgan shaxslarni aniqlash va ularga nisbatan tegishli choralarni ko‘rish kabi vazifalarni bajaradilar.

Biroq, huquqni muhofaza qilish organlari tizimida ichki ishlar organlari jinoyatlarning oldini olish va unga qarshi kurashda juda keng xajmda va turli xil yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatishi bilan ajralib turadi. Ular o‘z vakolatlari doirasida jamoat tartibini saqlash, jinoyatlarning sodir etilishi sabablarini aniqlash, oldini olish va ochish bo‘yicha operativ qidiruv chora-tadbirlarini, surishtiruv, dastlabki tergovni o‘tkazish va jinoyatga oid jazoni ijrosini ta’minlash bo‘yicha faoliyatni amalga oshiradilar [1].

Yuqoridagi vazifalarni samarali amalga oshirish **birinchidan**, ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan xodimlarning bilimiga, **ikkinchidan**, kasbiy tayyorgarligiga, **uchinchidan**, amaliy va hayotiy tajribasiga, **to'rtinchidan**, ijrochilik intizomi va topshiriqni bajarishdagi mas'uliyatiga hamda boshqa bir qator omillarga bog'liqdir. Bu esa, o'z navbatida, bugungi kunda ichki ishlar organlarini kadrlarni kasbiy tayyorlash, ularga xizmat sir asrorlarini o'rgatish, huquqiy bilim berish va tarbiyalash ishlarini yanada takomillashtirishni, xodimlarni kasbiy jihatdan tayorlashni jahon tajribasiga tayangan holda zamon talablari darajasida tashkil etish zarurligini ko'rsatadi [2].

Shu sababli jamoat tartibini muhofaza qilish, jinoyatchilikka qarshi kurash, markaziy hokimiyat idoralarining qarorlarini hayotga tatbiq etish vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish, eng avvalo ichki ishlar idoralari safida ishlayotgan **xodimlarning, ularning siyosiy ongi, huquqiy madaniyati, ijro intizomi, kasbiy mahorati va tayyorgarligiga bog'liq.**

Ma'lumki hozirgi zamon ichki ishlar organlari xodimlari oldiga quyidagi talablarni qo'ymoqda. Jumladan:

Sohaga oid etarli bilimga ega bo'lish;

kishilar bilan muloqotda bo'lganda muomala madaniyati, ular bilan tezda muloqotga kirisha olish – kirishimlilik;

mardlik, sabr matonat, jasurlik, tadbirkorlik, o'ta murakkab vaziyatlarda o'zini dadil tuta olish; intizomga qat'iy rioya etish, tanqidni to'g'ri qabul qilish;

halollik, vijdonlilik, xushmuomalalik, tartiblilik, insoniylik, nochor kishilarga yordam ko'rsatishga tayyor turish;

barqaror ishchanlik qobiliyati, amaldagi qonunchilik, O'zbekiston IIV buyruqlari, ko'rsatmalari va boshqa hujjatlarini bilish va ularga og'ishmay rioya qilish;

xizmat hujjatlarini to'g'ri tuzish layoqati;

ichki ishlar organlarida mavjud kuch va vositalardan to'liq foydalana bilish qobiliyati hamda ko'nikmalariga ega bo'lish va hokazolar.

Xolbuki, ilgari o'tkazilgan tadqiqotlardan ham ma'lumki, jinoyatchilikka qarshi kurash ayniqsa ularning oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirishda barcha subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ular o'rtasida samarali hamkorlikni tashkil etish, eng avvalo, ushbu vazifani bajarish uchun mas'ul bo'lgan xodimlarning tayyorgarlik darajasiga bog'liqdir [3].

Respublikamizda siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy munosabatlarni o'zgarishi bu munosabatlar ishtirokchilariga qo'yiladigan talablar doirasini kengaytirib borilishini taqazo etgani kabi, ichki ishlar organlari xodimlaridan katta mas'uliyat, chidam va fidoiylik talab etuvchi vazifalar, xodimlarga bo'lgan talablarni doimiy ravishda ortib borishini taqazo etmoqda.

Ichki ishlar organlari xodimlariga bo'lgan **umumiy va maxsus talablarini bo'lishi** eng avvalo ularning faoliyati bilan, bu sohada faoliyat yurituvchi xodimlarning o'z vazifalarini bajarishda aksariyat vaziyatlarda davlat majburlov choralari qo'llashni zarurati bilan bog'liq. Ichki ishlar organlari xodimlariga berilgan huquq o'z navbatida ular tomonidan qabul qilingan qarorlar va ularning oqibatlarini uchun javob berish ma'suliyatini ham yuklaydi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ayrim hollarda ichki ishlar organlari xodimlari o'z xizmat vazifalarini bajarishda ma'lum toifadagi shaxslar tomonidan qarshilik ko'rsatuvchi harakatlariga ham to'qnash keladilar. Bunday qarshiliklarni qonun doirasida hal etish yoki bartaraf etish xodimdan ekstremal vaziyatlarda to'g'ri va qonuniy harakat qilishni talab etadi. Avvaldan, "Ichki ishlar organlari xodimlari o'z xizmat vazifalarini bajarishlari jarayonida aholining turli tabaqa vakillari, ishchilar, ziyolilar, olimlar, studentlar, yuqori mansabdor shaxslar va chet el fuqarolari bilan uchrashishga ularning savollarga javob berishlariga, ular ishtirokida yuzaga kelgan muammolarni xal etishlariga, ularga ayrim masalalar yuzasidan maslahatlar berishlariga to'g'ri kelgan" [4].

Bunday holatlar ichki ishlar organlari xodimlaridan uning umumiy fikrlash qobiliyatini yuqori bo'lishini, turli soxalar bo'yicha bilimlarga ega bo'lishini va kishilar bilan muloqotda bo'lganda muomala qobiliyatiga ega bo'lishini taqazo etadi.

Yuqorida sanab o'tilgan talablar, ichki ishlar organlari xodimlarini faoliyatini o'ziga xos asosiy xususiyatlari yig'indisi bo'lib, ularning kasbiy va shaxsiy sifatlariga qo'yiladigan talablar ro'yxati va yig'indisini ifodalash imkonini beradi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, ichki ishlar organlarida shaxsiy tarkib bilan ishlashni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarda, xodimlarga qo'yiladigan asosiy va umumiy talablar o'z ifodasini quyidagicha topgan:

- o'z Vatani - O'zbekiston Respublikasiga, Prezidentiga va xalqiga sidqidildan xizmat qilish, xizmat burchini bajarishda o'z kuchi va hattoki hayotini ham ayamalik, konstitutsiyani himoyalash, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati qarorlarini hayotga qattiq va og'ishmay tadbiiq etish, qonunchilik, qasamyod, Nizom va buyruqlar talablariga rioya etish;

- xizmat, jamoat faoliyati va shaxsiy odobi bilan intizomlilik, soflik va rostgo'ylik, ijrochilik, mehnatsevarlik va yuksak madaniyatlilik namunasi bo'lish, maxsus unvonlarni qadr va qimmatini saqlash;

- xushyorlik ko'rsatish, davlat va xizmat sirlarini qattiq saqlash;

- doimiy ravishda o'zining kasbiy bilimlarini oshirish, o'ziga ishonib topshirilgan qurol va maxsus texnikani mukammal darajada bilish va saqlash, xalq mulkini doimo himoyalash [5].

Bugungi kunda ichki ishlar organlari xodimlariga qo'yilayotgan talablarni uch guruhga ajratib o'rganish maqsadga muvofiq:

1. *Ishchanlik sifatleri;*

2. *Shaxsiy sifatleri;*

3. *Maxsus kasbiy sifatleri.*

Ichki ishlar organlari xodimlariga quyilayotgan hozirgi zamon talablari ichida ulardagi dunyoqarashning yuksak darajada shakllanganligi va xodimning zarur kasbiy sifatlariga ega bo'lishini muhim o'rin tutadi. Dunyoqarash deganda atrofdagi voqeilikni nazariy jixatdan tafakkur etish va to'g'ri baholash tushiniladi.

Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar organlari xodimining dunyoqarashining to'g'ri va yuksak darajada shakllanganligi xodim tomonidan atrofdagi voqeilikni to'g'ri anglab yetishi uni to'g'ri baholashi va o'zi bajaradigan vazifalardan kelib chiqqan vaziyatda o'z o'rni va vazifalarini to'g'ri aniqlab olish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxtorov J.S. Profilaktika inspektorlarini kasbiy tayyorlash muammolari. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi Toshkent Davlat yuridik instituti "Davlat va huquq" jurnali. T.2005. 3 (25) - son. – B. 23-24.
2. Muxtorov J.S. Islohotlar jarayonida ichki ishlar organlariga professional kadrlar tayyorlashning ahamiyati. O'zbekiston Respublikasida sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar: bugungi holati, muammo va yechimlari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (2008-yil 29-noyabr). – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2008. – B. 224-227.
3. Zaripov Z.S. Sovershenstvovaniye pravoprimenitelnoy deyatelnosti organov vnutrennix del Respubliki Uzbekistan i preduprejdeniye organizovannoy prestupnosti. // Ekstremizm, terrorism, guruhii va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash muaamolari. –T., 1999. – B. 18.

4. U.Tadjixanov., S. Axmedova. Ichki ishlar organlarida boshqaruvni tashkil etish asosalari.T.-2001. – B. 204.
5. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi 407-son qonuni.